

48. Ko'p xonali sonlarni qoldiqli bo'lish



Yondosh mavzu:
modelyerlar.

Bo'linuvchi, bo'luvchi, to'liqsiz
bo'linma, qoldiq.



1. Ko'k rangli katakchadagi sonlarni 2 ga bo'lganda qanday qoldiq qoladi? Bu sonlarni yana qanday atash mumkin?

27

25

24

35

9

40


55



2. Sartarosh 6 soatda 8 kishini qabul qildi. U har bir mijozga necha minut sarflagan?



3. Sartaroshxonada sochiqlar 6 tadan qilib taxlab qo'yilgan. 27 ta sochiqni shunday qilib taxlasak, nechta to'liq taxlam chiqadi? Nechta sochiq ortib qoladi?



Qoldiqli bo'lish



	2	1	7		
	2	1	3		
			0		

Qoldiq 0 ga teng.
21 soni 7 ga butun
(qoldiqsiz) bo'linadi.

	2	0	7		
	1	4	2		
			6		

Qoldiq 0 ga teng emas.
20 soni 7 ga qoldiqli
bo'linadi.

48. Ko'p xonali sonlarni qoldiqli bo'lish



4. Sonni 10 ga bo'lganda qanday qoldiq qolishi mumkin? 5 ga bo'lganda-chi? 8 ga bo'lganda-chi? 1 ga bo'lganda-chi?



5. Sonni bo'lishdagi qoldiqni toping.

53 478 ni 3 ga

836 542 ni 5 ga

12 987 ni 7 ga

621 126 ni 4 ga



Kvartál – yilning uch oylik davri.

1 yil = 4 kvartal

1 kvartal = 3 oy



6. Diagrammaga qarab, savollarga javob bering.

Bolalar sataroshxonaga necha marta borishini diagrammada belgilashdi. Har bir bola kerakli joyga o'z stikerini joylashtirdi.



Yarim yilda bir marta



Bir kvartalda bir marta



Bir oyda bir marta

a) Nechta bola sataroshxonaga bir yilda ikki marta boradi?

Nechtasi yiliga to'rt marta boradi?

b) Eng katta guruh qaysi? Ular bir yilda sataroshxonaga necha marta boradi?

d) Diagrammani hammasi bo'lib necha kishi belgilagan?

48. Ko'p xonali sonlarni qoldiqli bo'lish



7. Sartaroshxonada uchta usta ishlaydi. Noyabr oyida birinchi usta 282 ta kishining sochini oldi. Ikkinchi usta birinchi ustadan 3 marta kam kishining sochini oldi. Uchinchi usta esa birinchi va ikkinchi usta birgalikda olganidan ikki baravar kam odamning sochini oldi. Uchinchi usta noyabr oyida necha kishining sochini olgan?



8. Hisoblang. Ma'lum bir vaziyatga eng mos kiyimni tanlab beradigan, kishining yuziga eng yarashadigan soch turmagini o'ylab topadigan kishining kasbi nima deb ataladi?

I	$(234 + 163) \cdot 6$	S	$(5\ 890 - 4\ 895) \cdot 3$
L	$(22\ 167 - 4\ 058) : 7$	T	$4\ 344 : 8 + 2\ 039$

2 985	2 582	2 382	2 587	2 382	2 985	2 582
-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------



9. Sartaroshxonadagi elektron soat faqat soatlar bilan minutlarni ko'rsatadi? Ertalab soat 9:00 dan kech soat 20:00 gacha bu soatda necha marta to'rtta bir xil sonni ko'rish mumkin?



10. Qoldiqli bo'lishni bajaring.

$$899\ 566 : 5$$

$$512\ 678 : 3$$

$$334\ 116 : 8$$

$$921\ 543 : 4$$



11. Uchta taroqdan iborat to'plamning narxi 18 600 so'm, beshtalik to'plam esa bundan 7 200 so'm qimmatroq. Qaysi birida bitta taroq arzonroq bo'ladi?